

PUDRAT SHARTNOMASI

23«9»2022 yil.

74-4-64-IB/2022-son

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritilgan Muborak tuman Irrigatsiya bo'limi bir tomondan va Nizom asosida ish yurituvchi va keyingi o'rinlarda «Bosh pudratchi» deb yuritiladigan "IGGS FAMILY" MCHJ nomidan G.Qarshieva ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar

1. SHARTNOMA MAZMUNI.

1.1. «Bosh pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga ko'ra «Buyurtmachi» balansida bo'lgan Sug'orish tarmoqlarini tozalash, ishlarini loyiha asosida bajarib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2. «Buyurtmachi» esa «Bosh pudratchi» ga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni, tegishli loyiha xujjatlari bilan ta'minlash, bajarilgan joriy ta'mirlash ishlarini tegishli tartibda qabul qilib, to'lov ishlarini amalga oshirish majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

1.3. Obyektda joriy ta'mirlash ishlarini bajarish muddati 20.09.2022 yildan 2022 yil 31-oktyabrgacha.

2. SHARTNOMA BAHOSI.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Bosh pudratchi» tomonidan bajariladigan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda **100260992,00 (Bir yuz million ikki yuz oltmish ming to'qqiz yuz to'qson ikki)** so'm.

2.2. Qurilish bahosi va muddati mazkur shartnomada nazarda tutilishi mumkin bo'lgan qurilish hajmining oshishi yoki kamayishini joriy ta'mirlash ishlari bajarilgunga qadar xukumat qaroriga ko'ra qiymatliklar o'zgartirilganligini fors-major holatlarini istisno etgan holda qattiy sanaladi.

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina shartnoma bahosiga oid o'zgartirishlar shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

3. SHARTNOMA BO'YICHA MAJBURIYATLARI.

«Bosh pudratchi»:

3.1. Barcha joriy ta'mirlash ishlarini mazkur shartnomaga ilova qilingan loyiha xujjatlarida ko'rsatilganga hajmda va belgilangan muddatda o'zining kuchlarini yoki jalb qilingan uchinchi shaxslar yordamida bajarish hamda shartnoma shartlariga ko'ra «Buyurtmachi»ga topshirish.

3.2. O'zi jalb qilgan uchinchi shaxslar tomonidan bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari sifatiga, muddati uchun javobgar bo'lish.

3.3. «Buyurtmachi»ni o'zi bilan uchinchi (Sub pudratchi) shaxslar o'rtasida tuzilayotgan shartnoma haqida xabardor qilish.

3.4. «Buyurtmachi» yetkazib bergan va o'z kuchi mablag'i evaziga tashib keltirilgan qurilish materiallari va konstruktiviyalarini ularga zarar yetmagan holda saqlash.

3.5. Joriy ta'mirlash ishlari bajarilayotgan obyektida ekologiya va tozalikka rioya etgan holda texnika va yong'in xavfsizligi tadbirlarini ta'minlash.

3.6. O'zi tomonidan keltirilgan qurilish materiallarining loyihada nazarda tutilgan talablarga (standart va x.k) javob berishini ta'minlash.

«Buyurtmachi»:

3.7. Kalendar ish rejasida belgilangan tartibda lekin shartnoma imzolangan kundan e'tiboran 5 kun muddat ichida obyekt maydoni va loyiha xujjatlarini «Bosh pudratchi»ga topshirish.

3.8. Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va muddatda bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari uchun «Bosh pudratchi»ga haq to'lash.

3.9. «Bosh pudratchi» ning yozma talab, iltimos to'lov va e'tirozlari 5 kunlik muddat ichida o'rganilib chiqib munosabat bildirish.

3.10. Kalendar ish rejasi asosida bajarilgan ishlarni tegishli tartibda qabul qilib olish.

4. TO'LOV VA HISOB-KITOBLAR

4.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda №2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g'azna ijrosi qoidalari"ga asosan budjet tashkilotlarini tovar (ish.xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalari majburiy tarzda G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng bajariladigan ishlar bo'yicha 30 kun ichida oldindan 30% to'lov amalga oshiriladi vaq qolgan 70% to'lovi taqdim etilgan xisob-fakturalarga asosan amalga oshiriladi.

4.2. Bajarilgan ishlarda aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagunga qadar to'lov ishlari kechiktirilishi mumkun.

5. ISHLARNI OLIB BORISH VA KAFOLAT MUDDATI.

5.1. «Buyurtmachi» qurilish obyektiga o'z vakili «Texnik nazoratchi» tayinlaydi. U «Buyurtmachi» nomidan ishlarning hajmi va sifati, materiallari hamda boshqa ashyolarni shartnoma shartlari va loyiha xujjalari talablariga mosligini tekshirib, bajarilgan ishlar dalolatnomasini rasmiylashtiradi.

5.2. Joriy ta'mirlash ishlari mazkur shartnomaga ilova qilingan ish grafigi, kalendar ish rejasiga ko'rsatilgan muddatgacha «Bosh pudratchi» tomonidan bajariladi.

5.3. Qurilish maydonida bajarilgan Joriy ta'mirlash ishlarini loyiha xujjalari va qurilish qonun qoidalari talablariga javob berish uchun «Bosh pudratchi» ma'sul sanaladi.

5.4. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlarini qurilish materiallari, jihozlaridan foydalanish va ishlarini kafolatlik muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektни qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagandan so'ng 12 oy obyektning kafolatli muddati 24 oy deb belgilanadi.

5.5. Sifatsiz bajarilgan ishlarni qayta tiklash uchun sarf qilingan qo'shimcha harajatlar shartnoma qiymatidan tashqari bo'lib, aybdor hisobidan qoplanadi.

5.6. Sifatsiz va kamchilik bilan bajarilgan ish aniqlanganligi xususidagi dalolatnoma bilan tomonlar kelisha olmasalar, ekspertiza tayinlanadi yoxud sud tartibi hal qilinadi.

6. QURILISHNI KONSERVATSIYALASH VA FORS-MAJOR HOLATI.

6.1. Qurilishni konservatsiyalashda taraflar majburiyatlarining ijro muddatini bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat (fors-major) 1 oydan ortiq davom etadigan bo'lsa, qurilishni noma'lum muddatga to'xtatish (konservatsiyalash) uchun chora-tadbirlarni ko'rishni muhokama etadilar. Bir to'xtamga kelinmasa, 2 oy mobaynida taraflar shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidirlar.

6.2. Agarda tomonlar majburiyatlarini qisman yoki to'la ijro eta olmay qolishi tabiiy hodisalar, harbiy xarajatlar, boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, Ushbu holatlar shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir etadigan bo'lsa, tomonlar shartnoma bo'yicha majburiyatlarini qisman yoki to'la ijro etolmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

6.3. Qurilish obyektga to'laligicha konservatsiya qilish haqidagi qaror qilingan kunga qadar bajarilgan ishlar haqi to'liq to'lanadi.

7. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

7.1. «Buyurtmachi» «Bosh pudratchi» ning aybi bilan qurilish grafik rejasi va loyiha shartlarida ko'rsatilgan ishlarning bajarilishi bir oydan ortiq vaqtda to'xtatilganda, ish sifati buzilganda, «Bosh pudratchi» yuridik shaxs sifati qonunda belgilangan tartiblarda aniqlanganda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishdan asossiz bosh torttirganda qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

7.2. «Bosh pudratchi» «Buyurtmachi» tomonidan asossiz ravishda 1 oydan ortiq vaqt mobaynida Qurilish ishlari to'xtatilib qo'yilganda, moliyalashtirish to'xtatib quyish xuquqiga egadir.

7.3. Shartnomani bekor qilish haqidagi talablar taraflar bir-birini yozma ravishda xabardor qilingan holda 1 oylik muddat ichida ko'rib chiqilib, hal qilinadi. Shartnomani asossiz bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

7.4. Shartnoma bekor qilinganda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zarar va boy berilgan foydani to'laydi.

8. TOMONLARNING MULKIY JAVOGBARLIGI.

8.1. «Buyurtmachi» «Bosh pudratchi» ga har bir kun uchun majburiyatining bajarilmagan qismini 0,4 % miqdorida peniya to'laydi. Peniya bajarilmagan majburiyatning 50 % idan oshmasligi lozim .

8.2. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz bosh tortganligi uchun «Buyurtmachi» «Bosh pudratchi» ga o'zini tasdiqlashni rad etgan so'mmanning 5 % miqdorida jarima to'laydi.

8.3. «Bosh pudratchi» «Buyurtmachi»ga o'z majburiyatlarini bajarmagan qismini 0,5 % miqdorida har bir kechiktirilgan kun uchun penya to'laydi. Penya bajarilmagan majburiyatining 50 % idan oshmasligi lozim .

8.4. «Bosh pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar sifati shartnomada va loyihada belgilangan va boshqa qonun talablariga javob bermasa, sifatsiz bajarilgan ish hajmi qiymatining 10 % miqdorida «Buyurtmachi» ga jarima to'laydi.

8.5. «Buyurtmachi» dan olingan foydalanilmagan qurilish materiallari va boshqa ashyolar bir oylik muddat ichida qaytarilmasa, qaytarilmagan mulkning 10 % miqdorida jarima qo'llanishiga sabab bo'ladi.

9. ALOHIDA QOIDALAR.

9.1. «Bosh pudratchi» o'z kuchi mablag'i bilan olib kelgan qurilish materiallari va boshqa ashyolarning shartnoma va hamda loyiha talablariga mos kelishi haqida sertifikat texnik pasportlari bo'lishini ta'minlashi shart.

9.2. Qurilish materiallari va boshqa ashyolar «Bosh pudratchi» tomonidan markazlashtirilgan omborlar orqali «Bosh pudratchi» ning yozma (trebovaniya) orqali beriladi.

9.3. Joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan transport vositalari maxsus transportlar «Yordamchi pudratchi» ixtiyorida bo'lmasa, «Bosh pudratchi» tomonidan markazlashtirilgan usulda ta'minlanadi.

9.4. Qurilish materiallari va boshqa ashyolardan hamda transport vositalaridan foydalanganlik uchun xisob-kitob qilish shartnoma doirasida amalga oshiriladi.

9.5. Shartnoma loyiha hamda qonun talablariga javob bermaydigan material va uskunalardan foydalanish ta'qiqlanadi.

10. SHARTNOMAGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH.

10.1. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish ikkala tomonni roziligiga asosan yozma ravishda bildiriladi.

11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

11.1. Shartnomani amal qilish muddati shartnoma ikki tomon o'rtasida imzolanib, g'aznachilik bo'linmasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab yuridik kuchga ega bo'ladi va 31 dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

12. KORRUPSIYAGA QARSHI KELISHUV

12.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalariga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni ular, ularning xodimlari, affillangan shaxslar, benefitsiari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilishda, moddiy yoki nomoddiy nafolishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

12.2 Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

12.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion xolatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

12.4 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlar qoplashni talab qilishiga haqli emas.

13. TOMONLARNING REKVIZITLARI.

“BUYURTMACHI”

Nomi: Muborak tuman irrigatsiya bo'limi
Manzili: Muborak tuman Yoshlik MFY
Shx/r: 100022860102347042402170001
INN: 207264373 **IFUT:** 70220
Bank: Markaziy Bank Tohskent shahri
MFO: 00014

Raxbar:
M.U.

N.SHaripov.


“PUDRATCHI”

Nomi: “IGGS FAMILY” MCHJ
Manzili: Qarshi Botash MFY
X/r: 20208000905400513001
INN: 308563987 **IFUT:** _____
Bank: Qarshi sh “Ipoteka bank” ATIB
MFO: 00190

Raxbar:
M.U.

G.Qarshieva



	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	NURBEK SHARIPOV SHAVKATOVICH
	Imzolangan sana	23 сех 2022 17:53
	Hujjat kodi	SW7615313362
	Hulosa kodi	TH7524257786

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ TH7524257786

1. Loyihaning turi

Muborak tuman Irrigatsiya bo'limining Xo'jalik munosabatlariga oid, Pudrat shartnomasi loyihasi yuzasidan quydagilarni,

ANIQLADIM:

2. Loyihaning nomi

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining Pudrat shartnomalariga oid moddalari, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 10-25-32-moddalari, 19-sentyabr 2022-yildagi 148278-sonli lot bayonnomasiga asosan,

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritilgan **Muborak tuman Irrigatsiya bo'limi** bir tomondan va Nizom asosida ish yurituvchi va keyingi o'rinlarda «Bosh pudratchi» deb yuritiladigan **"IGGS FAMILY" MCHJ** nomidan **G.Qarshieva** ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar.

Shartnomani tuzilgan kunidagi umumiy narxi **100260992,00 (Bir yuz million ikki yuz oltmish ming to'qqiz yuz to'qson ikki) so'mni** tashkil etadi.

«Bosh pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga ko'ra «Buyurtmachi» balansida bo'lgan Sug'orish tarmoqlarini tozalash, ishlarini loyiha asosida bajarib berishni o'z zimmasiga olishi, «Buyurtmachi» esa «Bosh pudratchi» ga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni, tegishli loyiha xujjatlari bilan ta'minlash, bajarilgan joriy ta'mirlash ishlarini tegishli tartibda qabul qilib, to'lov ishlarini amalga oshirish majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi to'g'risida shartnoma loyihasi,

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Muborak tuman Irrigatsiya bo'limi tomonidan 23.09.2022-yilda yuridik xizmat ko'rsatish markaziga taqdim etilgan. Yuqorida qayd etilganlarga va O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan,

XULOSA QILDIM:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblayman.

**Markaz bosh
yuriskonsulti**



X.A.Boirqulov

2022-yil "23" sentyabr

Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni Muborak tuman irrigatsiya bo'limi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

- pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;
- tovlamachilik qilish;
- pora sifatida pul to'lash;
- bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon Muborak tuman irrigatsiya bo'limi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi "CALL-MARKAZ" – 1253 qisqa raqam hamda Telegram-kanali "@antikorbot" orqali xabar berish lozim.

TOMONLAR:

Bajaruvchi: "IGGS FAMILY" MCHJ



Muborak tuman irrigatsiya
bo'limi boshlig'i N.Sharipov





«TASDIQLAYMAN»

Muborak tumani Irrigatsiya
bo'limi boshligi Komissiya raisi
N.Sharipov

**MUBORAK TUMANIDAGI IRRIGATSIYA-BO'LIMI BALANSIDAGI
SUG'ORISH TARMOQLARINI TOZALASH ISHLARI UCHUN ENG
YAHSHI TAKLIFLARNI TANLASH O'TKAZISH BO'YICHA
KOMISSIYA YIG'LISH
BAYONNOMASI №-1**

Muborak tuman

2022 yil «21» 09

Ishtirok etdilar:

- | | |
|---|---------------------------|
| 1. Sharipov Nurbek Shavkatovich | Bo'limi boshligi,
rais |
| 2. Abdullayev Ruxiddin Raxmonovich | Bosh mutaxasis,
a'zo |
| 3. Suyunov Odil Ro'ziqul o'g'li | Gidrometr,
a'zo |
| 4. Mellaev Narzulla Oqmuratovich | SRB
a'zo |
| 5. Abdixalimov Jamoliddin Shodmonqulovich | Bosh gidrotehnik
a'zo |
| 6. Xoliqov Abdig'ani Rejabovich | Bosh xisobchi,
kotib |

KUN TARTIBI:

Muborak tuman iirrigatsiya bo'limi balansidagi sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash ishlari taklifni tanlash (tender) o'tkazish bo'yicha

(N.Sharipov, A.Xoliqov, R.Abdullaev, N.Mellaev, J.Abdixalimov, O.Suyunov, N.Sharipov)

TIB tomonidan 2022 yil 12 avgustda O'zbekiston Respublikasi To'var va xom-ashyo birjasini elektron portaliga Muborak tumani irrigatsiya bo'limi balansidagi sug'orish tarmoqlarini inshootlarini joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha № 148278 – lot raqami bilan e'lon joylashtirildi. Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 16-sentebirdagi eng yahshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portaliga orqali shakllangan 'Muborak tumani irrigatsiya bo'limi balansidagi sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash ishlari bo'yicha' bayonnomasiga asosan e'lon yakuniga ko'ra komissiya a'zolari tomonidan "IGGS FAMILY" MCHJ g'olib deb topilganligini inobatga olib yig'ilish

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari tug'risida"gi 684-sonli qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokoma qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga

joylashtirilgan bayonnoma bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Muborak TIB bosh xisobchisi A.Xoliqovga:

Yuqoridagilardan kelib chiqib xamda komissiya a'zolarining 2022 yil 16-sentyabrdagi electron bayonnomasiga asosan g'olib "IGGS FAMILY" MCHJ bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnoma tuzilsin.

1.Abdullayev Ruxiddin Raxmonovich

Bosh mutaxasis
a'zo



2.Suyunov Odil Ro'ziqul o'g'li

Gidrometr
a'zo




3.Mellaev Narzulla Oqmuratovich

SRB
a'zo



4.Abdixalimov Jamoliddin
Shodmonqulovich

Bosh gidrotehnik
a'zo



5.Xoliqov Abdig'ani Rejabovich

Bosh xisobchi,
kotib





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Қашқадарё вилояти

180100, Qarshi Shahri, I.Karimov shox ko'chasi 60a-uy. Tel/Faks (375) 221-06-65, 221-10-90 E-mail:
kashdavekspertiza@mail.ru. www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Eshbabayev Maxmud Mustafayevich

Sana: 25-08-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 58486

Obyekt nomi «Qashqadaryo viloyat Mubarak tumani UR-9 kanalining PK 3+00dan PK8+00 gacha PK83+00dan PK93+00gacha PK134+00 dan PK187+00 gacha PK192+00PKlarni L=6.5km. qismini Mexanizim bilan tozalash ishlari»

Buyurtmachi - Mubarak tuman irrigatsiya bo'limi
Bosh loyihachi - Qashqadaryo " Maxsussuvloyixa" MChJ
Litsenziya AL-000001berilgan sana: 17.06.2019
Moliyalashtirish manbai - Mahalliy budget
Bosh pudratchi - tanlov
Qurilish turi joriy ta'mirlash
Murojaat raqami: № 50655

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. Mubarak tuman irrigatsiya bo'limining 2022yil 15 iyuldagi 167-sonli xati.
1.2. Mubarak tuman irrigatsiya bo'limi boshlig'i N.Sharipov va komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlangan "Nuqson dalolatnomasi"

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Mubarak tuman irrigatsiya bo'limi boshlig'i N.Sharipov va komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlangan "Nuqson dalolatnomasi"

- Ob'ektning joriy narxlardagi umumiy smeta qiymati.
- Joriy narxlarda talab qilinadigan resurslar qiymati

Fizik ish hajmlari ro'yxati (5-shakl)

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Ta'mirlash ishlari nuqson dalolatnomasiga asosan bajariladi.

Asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Ob'ektning taxminiy qiymati QOS bilan

buyurtmachini xarajatisiz - 102 307,135ming. so'm

Qurilish ishchilarining mehnat xarajati - 114,782kishi. soati

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Smeta qismi bo'yicha:

Mutaxassis tasdiqlangan ishchi loyihaning smeta hujjatlarini ko'rib chiqdi. Xarajatlar darajasi tekshirildi: ish xaqi, mashina va mexanizmlarning ishlashi, asosiy qurilish materiallari ShNK 4.02.00-05 normalariga muvofiq. "Uslubiy tavsiyalar" va ShNK 4.01.16-09 asosida amalga oshirilgan ob'ekt narxi amaldagi narxlarda aniqlash xisob kitobi asosida ko'rib chiqildi. Quruvchi-ishchilarning o'rtacha soatlik ish haqi ijtimoiy sug'urtani hisobga olgan holda 20538,48 so'mni tashkil etadi, sug'urta 12%, pudratchining boshqa harajatlari 19,54% ni tashkil etadi. Qurilish materiallari va konstruksiyalarining narxlari "O'zbekiston Respublikasining qurilish sanoatida foydalanadigan moddiy-texnika resurslari uchun 2022 yil 1-chorakdagi amaldagi narxlar katalogi" va bo'yicha mintaqadagi o'rtacha me'yorlarni hisobga olgan holda tekshirildi.

Buyurtmachi tomonidan amaldagi narxlarda e'lon qilingan ob'ekt qurilishining taxminiy qiymati **102 307,135** ming so'm miqdorida taqdim etilgan.

. Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugagandan so'ng, nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.2. Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 7- ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi»ga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchiligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1 " Qashqadaryo viloyat Mubarak tumani UR-9 kanalining PK 3+00dan PK8+00 gacha PK83+00dan PK93+00gacha PK134+00 dan PK187+00 gacha PK192+00PKlarni L=6.5km. qismini Mexanizim bilan tozalash ishlari " loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqilib, quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlar bilan kelishishga tavsiya etiladi.

Ob'ektning taxminiy qiymati QQS bilan

buyurtmachini xarajatisiz - 102 307,135ming. so'm

Qurilish ishchilarining mehnat xarajati - 114,782kishi. soati

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 1-ilova, 3-bob, 29-bandiga asosan, "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

7.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyundagi 261-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ob'ektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizom" va Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 26 apreldagi 243-sonli qaroriga ko'ra, ob'ektning tavsiya qilinayotgan boshlang'ich qiymati tanlov savdolarini o'tkazish uchun mo'ljallangan va shartnoma tuzish uchun asos bo'lmaydi.

Bosh mutaxassis: Radjabov Umidjon Murodullayevich

Ishtirokchi ekspertlar: